

**FANLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA O'QITISH UZVIYLIGINI
TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH****Shoximardanova Niginabonu Shavkatovna***TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslar instituti tayanch doktranti***KIRISH**

Respublikamizning pedagogik olim va amaliyotchilari tomonidan ilmiy asoslangan zamonaviy ta'lim texnologiyalari va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi RF-6-sonli Farmoni oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan. Mazkur strategiyaning innovatsion faoliyat, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni jalb etish natijadorligi yetarli emasligi, fanlar integratsiyasi yetarli ta'minlanmaganligi ko'rsatib o'tilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Amerikaning eng samarali integratsiyalashgan modeli, eng yuqori darajadagi tadqiqotchi universitetlarning bitiruvchilari odatda Nobel mukofoti sovrindorlari ekanligidan dalolat beradi. Ular keyinchalik, bir vaqtning o'zida davlatning ilmiy va texnikaviy rivojlanishini ta'minlaydigan va millionlab foyda keltiradigan ulkan texnologik kompaniyalarda konveyer oqimiga aylanadigan o'tkir loyihalar mualliflaridir.

Xorijiy oliy ta'lim muassasalarida ilm-fan va ta'limni integratsiya qilish muammolari quyidagi jihatlar bilan qamrab olingan bo'lib, xususan, rossiyalik olimlardan:

Kasbiy ko'nikma va yuqori malakaga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash imkonini beruvchi shart-sharoitlar yaratish, ta'lim jarayonini umumkasbiy va ixtisoslik fanlari integratsiyasiga asoslangan metodika asosida ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish, bo'lajak mutaxassislarda kasbga oid bilim, ko'nikma va malakalarni ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda shakllantirish va rivojlantirishni ilmiy jihatdan asoslash hamda metodik tizimini ishlab chiqish zaruriyati tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Integratsiya – juda keng ma'nodagi tushuncha. Integratsiya nima? "Integratsiya" – lotincha «integration» so'zidan olingan bo'lib, «integr» to'liq yaxlit, bir butun degan ma'nolar anglatadi. Integratsiya – o'zaro bog'langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq deganidir. Integratsiya turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish jarayonidir.

Integratsiya jarayonlari tashkillashtirilgan tizimlarda bo'lishi mumkin – bu holda ular tizim butunlik darajasini va tashkillashtirilgan darajasini ko'taradi. Integratsiya jarayonlari oldin bog'lanmagan elementlarni biriktirish asosini hamda shakllangan tizimlarda ham yuz berib, natijada tizimni bir butunligi va tashkillanish darajasi oshishiga, element va tarkibiy qismlar

o'rtasida aloqadorlik murakkablashuviga olib keladi. Bir butunlikka birikkan tarkibiy qismlar turli xil darajada avtonomlikka ega bo'ladi.

Gerbert Spenser (1820-1903) falsafasida integratsiya – sochilgan, sezilmaydigan holatning ichki jarayonlarini sekinlashuvi natijasida zichlashishi va seziladigan darajaga o'tishi deb tushunilsa, dezintegratsiya – buning aksi, ya'ni zich joylashgan narsaning harakat tezlashishi natijasida sochilgan holatga o'tishidir deb aytiladi. Spenser “integratsiya” so'zini, ko'pincha, agregatsiya tushunchasi bilan teng ma'noda qo'llaydi. Uning ta'limotiga ko'ra, Quyosh tizimi, sayyoralar, organizm, millat rivoji integratsiya va dezintegratsiyaning birin-ketin o'rin almashinuvi natijasidir.

Nemis psixolog faylasufi E.R. Yensh (1883-1940) psixologiyasida integratsiya deganda, ruhiy hayotning ayrim xususiyatlarini butun ma'naviy hayot majmuiga ta'sir qilishi tushuniladi, – deydi.

Rudolf Smend (1851-1913)ning davlat to'g'risidagi ta'limotida integratsiya deganda davlatning, uning faoliyati shakllarining o'zaro ta'siri natijasida doimiy yangilanib turishi anglanadi. Ijtimiy integratsiya individlar, guruhlar, tashkilotlar va davlatlar o'rtasidagi tartibli munosabatlar mavjudligini anglatadi. Integratsiya jarayonini tahlil qilishda u bilan bog'liq tizim yoki sohaning murakkabligi e'tiborga olinadi.

Muhokama. Bizning fikrimizcha integratsiya – ob'ektiv hayotiy jarayon. Globallashayotgan hozirgi hayotning integratsiyalashuv jarayonida mustaqillikni saqlab qolish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu esa xalqaro hamkorlikda quyidagi printsiplarga qat'iy amal qilishni taqozo etmoqda:

integratsiyalashgan birlashmalarga faqat tomonlarning tengligi asosida qo'shilish lozim (hatto siyosiy-iqtisodiy potentsial turli-tuman bo'lgan taqdirda ham);

milliy manfaatlar deklaratsiyasiga asoslanish, ularning mintaqaviy va boshqa manfaatlar oldida ustuvorligi;

ishtirok etishning ixtiyoriyligi va u yoki bu ittifoqni tanqid qilish imkoniyati mavjudligi.

Misol sifatida jamiyatda integratsiyalashuv, sivilizatsion integratsiyalashuv, fanda integratsiyalashuv va h.k. tushunchalar mavjud bo'lib, jamiyat yoki ayrim davlatlarning integratsiyasi majburiy o'zaro manfaat yoki maqsad, intilish, qadriyat kabilar asosida joriy etiladi. Hozirgi davrda davlatlararo integratsiyalashuvlar jarayonlari ham jadal rivojlanmoqda. Bu esa xorijiy tajribalarni o'rganish va ta'limning ma'lum jabhalarida keng qo'llash imkonini beradi.

Respublikamiz pedagog olimlarining integratsiya masalalariga ilmiy qarashlarini ko'rib chiqaylik. U.B.Mamutovning fikricha, respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida kasbiy-pedagogik ta'lim integratsiyasi va uzviyligini ta'minlash kabi o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammo mavjud bo'lib, bugungi uzluksiz ta'lim talablaridan kelib chiqib, mazkur muammo yuzasidan yig'ilgan fikr-mulohazalarga ilmiy-amaliy asoslangan aniqliklar kiritish hamda kasbiy-pedagogik ta'lim tizimi uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashni amalga oshirish fursati yetib keldi.

Shu nuqtai nazardan o'quv fanlari orasida o'zaro uzviylikni va integratsiyani ta'minlash muammosi hozirgi kunda ham dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Natija. Texnik oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini ko'p jihatdan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini samarali o'qitish belgilaydi. Mazkur fanlarni o'rganishda ko'proq amaliylik yuqori bo'lganligi, ishlab chiqarishga yaqinroq hisoblanganligi gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlardan farqli ekanligini ko'rsatadi. Ishlab chiqarishdagi malakaviy amaliyotlar umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bilan o'zaro bog'liq holda olib boriladi. Umumkasbiy va ixtisoslik fanlardan o'qitish metodlarini tanlash va o'quv maqsadlarini belgilash ham o'ziga xoslikni talab etadi. Umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining yetakchi komponenti bo'lib "faoliyat usullari", ya'ni bo'lajak muhandislarning ishlab chiqarish korxonalaridagi amaliy faoliyati bilan bog'liq texnik-texnologik jarayonlar hisoblanadi. Shuning uchun ham umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan o'quv-uslubiy majmualar yaratish va shu bilan bog'liq bo'lgan ta'lim mazmunini belgilashda, o'quv jarayonini tashkil etishda, o'qitishning samarali usullarini tanlashda chuqur didaktik tahlil o'tkazish lozim.

Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari ishlab chiqarishning aniq sohalari bo'yicha, ularda aniq sohaviy (kasbiy) xususiyatlarini aks ettiruvchi bevosita chuqur, puxta bilimlar beruvchi, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qiluvchi jarayonlarni qamrab oladi. Bunday fanlar jumlasiga turli ta'lim yo'nalishlari bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarining sohalari: qishloq xo'jaligi tarmoqlari, sanoat ishlab chiqarish korxonalari, mashinasozlik, transport, aloqa, xalq hunarmandchilik tarmoqlari, madaniyat va san'atning yo'nalishlari va boshqa sohalar bo'yicha faoliyat turlarining o'ziga xos xususiyatlarini bevosita namoyon etadigan fanlar, ularning qismlari kiradi.

Bizning nazarimizda, ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etishda ko'maklashuvchi integratsiya omillari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

ta'lim oluvchilarning yangi bosqich sharoitlariga moslashish omili;

bilimlarning ketma-ketligi omili – yangi bilimlarning eskilari bilan aloqasi o'quv mashg'ulotlari ko'rib chiqiladi;

konstruktiv-grafik mahoratni shakllantirishni xususiylashtirish omili – ularning maqbul natijalarga erishishida har birining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagog tomonidan turli xildagi usul va shakllardan mos ravishda foydalanishni ko'zda tutadi;

konstruktiv-grafik mahoratni shakllantirishda o'quv faoliyatini faollashtirish omili – o'quv materialini uslubiy tashkil etish bilan, xususan, unda talabalar harakatini faollashtirish asosi sifatida "tayanch" tizimini yuzaga chiqarish zaruriyati bilan aloqadordir.

Yengil sanoat sohasi umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasida yoritilgan yondashuvlar juda ko'p va xilma-xil. Quyida (1.-jadval) ulardan ba'zi birlarini ko'rib o'tamiz:

Umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasida yoritilgan yondashuvlar

№	Nomlanishi	Mazmuni
1	<i>Tizimli yondashuv</i>	O'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni biror belgilari asosida tasniflash, tasavvurlar, tushunchalar va qonuniy aloqalarni o'rnatish
2.	<i>Bixevioristik yondashuv</i>	O'rganilayotgan materialni mexanik ravishda ko'p martalab takrorlash orqali unga doir ko'nikma va malakalar hosil qilish
3.	<i>Induktiv - ongli yondashuv</i>	Tajribalar va amaliyotlardan jarayon va qoidalarni anglashga qarab borish
4.	<i>Funksional-semantik yondashuv</i>	Talabalarning nazariy bilimdan o'z faoliyatida foydalanishida ma'lumotlarni esga olish va qo'llashdagi asosiy omil – bilim va ko'nikmalardan foydalanishdagi vazifasi va ma'nosi ustidagi ishlar
5.	<i>Kommunikativ yondashuv</i>	Predmetni yoki uning belgisini, yohud bajargan ish-harakatini va hokazolarni bajarish maqsadi sifatidagi mantiqiy-semantik yoki mantiqiy-ma'noviy jihatdan talqin qilingan yondashuv, muloqot jarayoni
6.	<i>Strukturali - funksional yondashuv</i>	Mazmun ko'lamini bilan ifoda ko'lamining amaliy faoliyat bilan nisbatlanadigan shakli orasidagi uzviy birlikni hisobga olish imkonini beradi

Yuqorida sanab o'tilgan o'qitish metodikasidagi yondashuvlardan umumkasbiy va ixtisoslik fanlari integratsiyasini ta'minlashda tizimli yondashuv, induktiv-ongli yondashuv, struktural-funksional yondashuvlar qo'llanildi. Mazkur yondashuvlarning afzalliklari nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylanishi, o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni (biror belgilari asosida tasniflash, tasavvurlar, tushunchalar va qonuniy aloqalarni o'rnatish) imkoniyati, amaliy faoliyatni ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'lash (tajribalar va amaliyotlardan jarayon va qoidalarni anglashga qarab borish), mazmun bilan ifoda ko'lamining amaliy faoliyat bilan uzviy birlikni hisobga olish imkonini berishi bilan ifodalanadi.

Xulosa. Fanlar integratsiyasini amalga oshirishda talaba nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'zaro aloqadorlikda o'rganish bilan birga uning mustaqil izlanish, tahlil qilish va erkin fikr yuritish, ijodiy va ilmiy nuqtai nazardan to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatlari rivojlanadi, shuningdek, o'qituvchining ta'lim metodlari va shakllarini tanlash imkoniyatlari kengayishi asoslandi.

Oliy ta'lim muassasalarida fanlar integratsiyasini ta'minlashning metodik asoslarini ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga qo'llashda samara beradigan bir qator ta'lim mazmuni va afzalliklari ilmiy jihatdan tahlil qilindi va tavsiyalar ishlab chiqildi, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari integratsiyasini ta'minlashning imkoniyatlari aniqlandi.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2020 yil 24 yanvar. / <https://review.uz/uz/post/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-savkat-mirziyoevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi>.
2. I.J.Xudayev, I.J.Xudayev, & Sh.M.Tojiyev. (2024). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKLANLI EGATLARDAN G'O'ZANI SUG'ORISH TEXNOLOGIYASI. Uz-Conferences, 1(1), 514-519. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/109>
3. Khudaev, I. J., & Shoximardanova, N. S. (2023). FEATURES OF DRIP IRRIGATION OF CROPS. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 2(24), 157-160.
4. Худаев, И. Ж., & Шохимарданова, Н. Ш. (2023). ҚОВУН ПОЛИЗ ЭКИНИНИНГ БИОЛОГИК ВА МОРФОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 479-482).